



XO'JALIK SUBYEKTLARI O'RTASIDAGI NAQD PULSIZ HISOB-KITOBLARGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

PhD Ruzimuradov Shuxrat

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki

ORCID: 0009-0006-5991-2225

ruzimuradov@cbu.uz

Annotatsiya. *Iqtisodiyotda pul mablag'larining aylanishi asosan xo'jalik subyektlari o'rtasida amalga oshirilgan naqd pulsiz hisob-kitoblar orqali amalga oshiriladi. Xo'jalik subyektlari o'rtasida naqdsiz pul mablag'larini harakatlanishiga bir qancha omillar bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham mazkur naqd pulsiz hisob-kitoblarga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so'zlar: *naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimi, naqd pulsiz hisob-kitoblarning ishtirokchilari, naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish bosqichlari, naqd pulsiz hisob-kitoblarga ta'sir etuvchi omillar.*

ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА БЕЗНАЛИЧНЫЕ РАСЧЕТЫ МЕЖДУ ХОЗЯЙСТВУЮЩИМИ СУБЪЕКТАМИ

PhD Рuzимурадов Шухрат

Центральный банк Республики Узбекистан

Аннотация. *В экономике циркуляция денежных средств преимущественно осуществляется через безналичные расчёты между хозяйствующими субъектами. На движение безналичных денежных средств между хозяйствующими субъектами непосредственное влияние оказывают ряд факторов. В связи с этим изучение факторов, влияющих на безналичные расчёты, представляет собой важную научную и практическую задачу.*

Ключевые слова: *система безналичных расчетов, участники безналичных расчетов, этапы осуществления безналичных расчетов, факторы влияющие на безналичные расчеты.*

FACTORS AFFECTING NON-CASH PAYMENTS BETWEEN BUSINESS ENTITIES

PhD Ruzimuradov Shukhrat

Central Bank of the Republic of Uzbekistan

Abstract. *In the economy, the circulation of monetary funds is carried out predominantly through cashless payments between business entities. A number of factors directly influence the movement of cashless funds among these entities. In this regard, studying the factors that affect cashless payments constitutes an important scientific and practical task.*

Keywords: *system of cashless payments, participants of cashless payments, stages of executing cashless payments, factors influencing cashless payments.*

Kirish.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy munosabatlarning takomillashuvi va elektron to'lov tizimlarining jadal rivojlanishi xo'jalik subyektlari o'rtasidagi naqd pulsiz hisob-kitoblarning iqtisodiy ahamiyatini sezilarli darajada oshirmoqda. Iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi, bank-moliya tizimining modernizatsiyalashuvi hamda elektron to'lov infratuzilmasining keng rivojlanishi xo'jalik subyektlari o'rtasidagi naqd pulsiz hisob-kitoblarning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Naqd pulsiz hisob-kitoblar korxonalar faoliyatida moliyaviy resurslarning samarali harakatlanishini ta'minlash, to'lov intizomini mustahkamlash, operatsion xarajatlarni kamaytirish va moliyaviy xavfsizlikni oshirishda muhim vosita hisoblanadi.

Mamlakatimizda iqtisodiyotni raqamlashtirish, elektron to'lov tizimlarini rivojlantirish va bank xizmatlarini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar xo'jalik subyektlari o'rtasida naqd pulsiz hisob-kitoblar hajmining izchil ortishiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, mazkur jarayonga bank infratuzilmasining rivojlanish darajasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, huquqiy-me'yoriy baza, korxonalarining moliyaviy holati, to'lov intizomi hamda iqtisodiy muhit kabi ko'plab omillar ta'sir ko'rsatadi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimining samaradorligini oshirish va mavjud muammolarni aniqlash uchun ushbu omillarni chuqur o'rganish zarur hisoblanadi. Ayniqsa, iqtisodiy munosabatlarning globallashuvi va raqamli iqtisodiyot sharoitida xo'jalik subyektlari o'rtasidagi hisob-kitob jarayonlariga ta'sir etuvchi omillarni ilmiy jihatdan tahlil qilish amaliy va nazariy ahamiyat kasb etadi. Shu sababli xo'jalik subyektlari o'rtasidagi naqd pulsiz hisob-kitoblarga ta'sir etuvchi omillarni tadqiq etish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

Iqtisodiyotni hisob-kitoblargasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Iqtisodiy tizimni harakatlanishi, rivojlanishi va taraqqiy etishi pul mablag'lari yordamida amalga oshiriladigan hisob-kitoblar bilan bevosita bog'liq. Shuning uchun ham bugungi kunda pul o'ziga xos ahamiyatga ega. Rossiyalik mutaxassislar bu borada quyidagilarni qayd etishgan: ***“Pulga ega bo'lish istagi mehnat va ijodkorlikni rag'batlantiradi ... Ammo asosiysi, pul jamiyatdagi savdo va iqtisodiy munosabatlarni tashkil etishning eng muhim vositasi hisoblanadi. Bu dunyoning progressiv rivojlanishiga hissa qo'shadigan insoniyatning buyuk iqtisodiy ixtirosidir”*** (Михаэлис, Харламов, 1993).

Bugungi kunda pul mablag'lari yordamida naqd pullik yoki naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirishning imkoniyati barcha davlatlarda mavjud.

Ilm-fanni ayniqsa, axborot texnologiyalarini jadallik bilan rivojlanib borayotganligi, o'z navbatida, moliyaviy texnologiyalarni yuksalishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu ayniqsa, naqd pulsiz hisob-kitoblarning turli zamonaviy usul va shakllarini yaratilishida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Shuning uchun ham naqd pulsiz hisob-kitob (*keyingi matnlarda NPHK*) usullari yordamida amalga oshirilgan hisob-kitoblarning o'rni, ahamiyati bugungi kunda juda yuqori.

Adabiyotlar sharhi.

“Bank ishi” nomli kitobda yozilishicha: *“Hisob-kitob jarayonlarida pullar turli tomonlarga harakatlanib, iqtisodiy organizmning barcha bug'inlarida aylanadi. Shu bilan birga, bozor iqtisodiyotining eng muhim omili bo'lgan tovarlarni pulga ayirboshlash jarayonlari amalga oshiriladi. Pul aylanmasining asosiy qismi (80-90%) naqd pulsiz hisob-kitoblar tashkil etadi...”* (Лаврушина, 1992).

Demak, amalga oshirilgan NPHKlarning joriy holatini tahlil qilish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Chunki, bunday tahliliy ishlarni amalga oshirilishi iqtisodiyotning qaysi tarmog'ida yoki mamlakatning qaysi hududida naqd pulsiz mablag'larni qanday miqdorda, mutanosiblikda aylanayotganligini o'rganish imkonini beradi. Natijada, bunday tahliliy ma'lumotlarga tayangan holda naqd pulsiz aylanmalarni tartibga solish yuzasidan asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniyati vujudga keladi.

Iqtisodchi olimni ta'qidlashicha: *"Rivojlangan mamlakatlarda naqd pulsiz to'lovlarni amalga oshirish amaliyoti yetarlicha rivojlangan va ushbu operatsiyalarni davlat tomonidan tartibga solish bo'yicha katta tajriba to'plangan... Iqtisodiy islohotlar davrida iqtisodiy mexanizm samaradorligini oshirishning shartlaridan biri bu mamlakatda naqd pulsiz aylanmalar boshqarilishini yanada takomillashtirishdir"* (Алексеева, 2000).

Haqiqatan xam NPHKlarning joriy holatini tahlil qilish va mazkur hisob-kitoblar yordamida aylanayotgan pul mablag'larini tartibga solish, boshqarish – iqtisodiyotni barqaror va uzluksiz rivojlanishi uchun zamin yaratib beradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblar orqali iqtisodiyotda aylanayotgan pul mablag'larini tahlil qilishga bag'ishlangan ilmiy izlanishlarimiz dastlabki bosqichida naqd pulsiz hisob-kitoblarning joriy holatiga doir elektron fayl ko'rinishidagi axborotlarni qayta ishlashda tahlil va sintez hamda guruhlash usullaridan foydalanilgan.

Ushbu axborotlarni qayta ishlashning ikkinchi bosqichida taqqoslash, induksiya va deduksiya, ekspert baholash usullari yordamida qiyosiy tahlil amalga oshirildi. Shuningdek, tadqiqotlarmizda solishtirma va tizimli tahlil usullaridan kyeng foydalanildi. Natijada, xo'jalik subyektlari o'rtasida amalga oshirilgan naqd pulsiz hisob-kitoblarning joriy holatini aks ettiruvchi elektron fayl ko'rinishidagi axborotlarni yagona bazasini shakllantirish, ularni tartiblangan, ixchamlashtirilgan holda maxsus jadvalga joylashtirish hamda ushbu jadvaldagi ma'lumotlar asosida iqtisodiyotda harakatlanayotgan pul mablag'larini turli kesimlarda tahlil qilish hamda tartibga solishda – hisob-kitob tizimlari xavfsizligini va mazkur tizimdagi elektron fayl ko'rinishidagi axborotlarning himoyasini ishonchli tarzda ta'minlash muhim ahamiyatga ega ekanligi ham asoslab berilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Barchamizga ma'lumki muomaladagi pul mablag'larining asosiy qismi xo'jalik subyektlari o'rtasidagi naqd pulsiz hisob-kitoblar orqali aylanadi. Shuning uchun ham xo'jalik subyektlari o'rtasida amalga oshirilgan NPHKlarga hamda mazkur hisob-kitoblarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularni tahlil qilish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Xo'jalik subyektlari o'rtasidagi NPHKlarga bir qancha omillar turli darajada ta'sir ko'rsatadi. Vaholanki, ushbu omillarni o'rganish, tahlil qilish va mazkur NPHKlarning ko'lamini, salmog'ini yanada kengaytirish bo'yicha zaruriy choralarni ko'rilishi – iqtisodiy tizim taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim tadbirlardan biri hisoblanadi.

Raqobat muhiti hukmron bo'lgan iqtisodiyotda xo'jalik subyektlari tomonidan NPHKlarni amalga oshirish jarayonlariga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi omillarning asosiylarini quyidagi 1-rasmda keltirilganidek guruhlarga ajratgan holda tasniflashni taklif etmoqdamiz.

Xaqiqatan ham xo'jalik subyektlari o'rtasidagi NPHKlarga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularning ta'sir doirasini o'rganishda mazkur omillarni guruhlarga ajratgan holda tahliliy ishlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga egadir.

Yuqoridagi 1-rasmdan ko'rinib turibdiki, xo'jalik subyektlari o'rtasidagi NPHKlarning ko'lamini ijobiy yoki salbiy tomonga o'zgarishi asosan:

- NPHKlar tizimining qanchalik ishonchli va qulay ekanligiga;
- NPHKlarni amalga oshirishga doir me'yoriy hujjatlarning qay darajada mukammal ekanligiga;
- muomaladagi naqdsiz pul mablag'larining miqdoriga (yetarli emasligi yoxud ortiqcha ekanligiga);
- NPHKlarni amalga oshirishga salbiy ta'sir etuvchi kutilmagan fors-major holatlarni ro'y berishiga va boshqa bir qancha omillarga bevosita bog'liq ekan.

XO'JALIK SUBYEKTLARI O'RTASIDAGI NAQD PULSIZ HISOB-KITOBLAR



NPHKLARNI AMALGA OSHIRISH JARAYONLARIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR

NPHKLAR TIZIMINING ISHONCHLI VA QULAY EKANLIGI:	NPHKLARNI AMALGA OSHIRISHGA DOIR ME'YORIY HUJJATLARNI MUKAMMALLIGI:	MUOMALADAGI NAQDSIZ PUL MABLAG'LARINING MIQDORI:	KUTILMAGAN FORS-MAJOR HOLATLARNI RO'Y BERISHI:
NPHKLAR AMALGA OSHIRILADIGAN TIZIMNING MUKAMMAL DARAJADA HIMOYALANGANLIGI, ISHOCHLI EKANLIGI HAMDA FOYDALANUVCHILAR UCHUN QULAY VA SAMARALI TIZIM EKANLIGI	NPHKLARNI AMALGA OSHIRISHGA DOIR TARTIB VA QOIDALARNI BOZOR IQTISODIYOTI TAMOYILLARIGA QANCHALIK MUVOFIQLIGI	MUOMALADAGI NAQDSIZ PUL MABLAG'LARINI QANCHA MIQDORDA EKANLIGI (ZARURIY ME'YORDAN KAMLIGI YOKI ORTIQCHALIGI)	BOZOR TAVAKKALCHILIKLARI GA YETARLI DARAJADA E'TIBOR BERILMASLIGI, HUKUMAT SIYOSATINI YOKI MAKROIQTISODIY VAZIYATNI YOMON TOMONGA O'ZGARISHI, XO'JALIK FAOLIYATIGA SALBIY TA'SIR ETUVCHI TABIIY OFATLARNI RO'Y BERISHI VA HOKAZOLAR.

1-rasm. Xo'jalik subyektlari o'rtasidagi NPHKlarga ta'sir etuvchi asosiy omillar

Demak, har qanday davlatda NPHKlarning amalga oshirish jarayonlariga hamda uning ko'lamiga yuqorida sanab o'tilgan omillar sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi.

Shu asnda qayd etish lozimki, xo'jalik subyektlari o'rtasidagi NPHKlar ko'lamini, miqyosini qay darajada bo'lishiga, makroiqtisodiy vaziyatga bog'liq bo'lgan quyidagi bir qancha obyektiv va subyektiv omillar ham bevosita ta'sir etadi:

- pul va valyuta bozorlarini erkin faoliyat yuritishlari uchun zaruriy sharoitlarni yaratilganligi hamda ushbu bozorlarda taklif etilayotgan xizmatlardan foydalanish uchun xo'jalik subyektlariga qulay bo'lgan moliyaviy vosita va instrumentlarning mavjudligi;

- xo'jalik subyektlari NPHKlarni amalga oshirishda foydalanadigan to'lov tizimlarini qay darajada ishonchli, mukammal va qulay ekanligi;

- xo'jalik subyektlariga taklif etilayotgan NPHKlarni amalga oshirish usullari va shakllarini bozor tamoyillariga qanchalik muvofiqligi;

- xo'jalik subyektlarining milliy valyutaga, qolaversa bank tizimiga bo'lgan ishonchini qay darajada ekanligi;

- valyuta ayirboshlash tizimini va ayirboshlash kurslarini bozor tamoyillariga qanchalik muvofiqligi;

- mijozlarning bank hisobvaraqlarida turgan pul mablag'larining daxlsizligi qay darajada kafolatlanganligiga hamda mijozlarga o'z hisobvaraqlaridagi mablag'larini mustaqil tasarruf etishlari uchun qulay sharoit va imkoniyatlarni yaratilganligi;

- mamlakatda pul-kredit siyosatini qanday instrumentlardan foydalanilgan holda yuritilayotganligi xususan, muomaladagi pullar miqdorini qanday usul va mexanizmlar yordamida tartibga solinayotganligi;

- davlat tomonidan o'z moliyaviy majburiyatlarini muddatida va to'liq bajarilishi ahvoli;

- soliqlarning turlari va uning stavkalarini soliq to'lovchilarni qay darajada rag'batlantirish xususiyatiga ega ekanligi hamda olib borilayotgan soliq siyosatini mavjud iqtisodiy vaziyat bilan uyg'unlashganligi;

- to'lov intizomi va hisob-kitob qoidalarini shuningdek, hisob-kitoblarda ishtirok etuvchi tomonlarning huquq va majburiyatlarini qonunchilik hujjatlarida qay darajada to'liq ifoda etilganligi;

- har bir xo'jalik yurituvchi subyekt rahbarlarining o'z moliyaviy majburiyatlarini bajarishga qanday mas'uliyat bilan yondashayotganligi va boshqa shu kabi omillar.

Endi, xo'jalik subyektlari o'rtasidagi NPHKlarga bevosita aloqador bo'lgan va unga sezilarli darajada ta'sir etuvchi asosiy omillarning ayrimlari xususida o'z fikr va mulohazalarimizni quyida qisqacha ifodalab o'tamiz:

a) O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki huzurida to'lov markazi tashkil etilib, respublikamizda faoliyat yuritayotgan barcha tijorat banklari ushbu tizim orqali o'zaro yagona tizimga bog'langan. NPHKlarni amalga oshirishda foydalaniladigan to'lov tizimlari ishonchli, qulay bo'lishi, shuningdek, to'lov tizimlarini bank mijozlari oldidagi mas'uliyati va majburiyatiga ham alohida e'tibor qaratilishi lozim.

b) Mamlakatda NPHKlar ko'lamini, hajmini imkon qadar kengaytirishga erishish uchun boshqa xo'jalik subyektlari singari davlat ham o'z moliyaviy majburiyatlarini belgilangan muddatlarda va to'liq bajarilishini ta'minlash choralari ko'rish lozim ekan. Zero, davlat tomonidan o'z moliyaviy majburiyatlarini bajarilmasligi ya'ni, davlat byudjetidan mablag'larni o'z vaqtida ajratilmaganligi ham xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi NPHKlarni amalga oshirish muddatlarini kechiktirilishiga asosiy sabablaridan biri bo'lishi mumkin.

v) iqtisodiyotda NPHKlarni o'z vaqtida amalga oshirilishi va tovar-pul-tovar munosabatlarini talab darajasida yo'lga qo'yilishi muomaladagi pullar miqdoriga ham bevosita bog'liqdir. Shu sababli ham xo'jalik subyektlari o'rtasidagi NPHKlar ko'lamini imkon qadar kengaytirishga erishish uchun muomaladagi pullar miqdorini maqbul darajada bo'lishini ta'minlashimiz zarur. Iqtisodchi olim O'lmasovni (1997): *"Pulning ko'payib ketishi nomaqbul hodisa, ammo bundan pulning kamayib ketishi yaxshi narsa deb xulosa qilib bo'lmaydi. Iqtisodiyot talabi shuki, pul miqdori keragicha bo'lishi zarur, undan oshib ham, kamayib ham ketmagani ma'qul"* deb ta'kidlagani bejiz emas.

g) Milliy valyuta har bir jamiyat a'zosi uchun qadrlil va davlatning asosiy to'lov vositasi bo'lib qolishi uchun jamiyat a'zolariga shunday qulay shart-sharoitlarni yaratib berishimiz kerakki, ular hisob-kitoblarni milliy valyutadan foydalangan holda amalga oshirishdan hamda o'z mablag'larini, jamg'armalarini faqat milliy valyutada saqlashdan manfaatdor bo'lsinlar.

d) Bank mijozlari o'z hisobvaraqlaridagi mablag'laridan erkin foydalana olmasliklari ya'ni, bozor tamoyillariga mos kelmaydigan "sun'iy to'siq"larni va "ma'muriy cheklov"larni mavjud bo'lishi – milliy valyuta qurbi va obro'siga salbiy ta'sir ko'rsatishi bilan bir qatorda, xo'jalik subyektlari o'rtasidagi NPHKlarni o'z vaqtida amalga oshirilishiga ham o'z salbiy ta'sirini ko'rsatadi.

y) Xo'jalik subyektlari faoliyatini rivojlantirish hamda bundan davlat va xo'jalik subyektlari o'zaro manfaatdorligini oshirish uchun soliq va boshqa majburiy to'lovlarning turlari, stavkalarini iqtisodiyotning joriy holati, har bir hududning o'ziga xos xususiyatlari inobatga olingan holda belgilanishi lozim. Soliq siyosati va qonunchiligini mukammal emasligi, soliq va boshqa majburiy to'lovlarning turlari, stavkalarini yuqori darajada belgilanganligi, hisoblangan soliq va boshqa majburiy to'lovlarni "hozir" undirish maqsadini ustuvor ekanligi, o'z-o'zidan xo'jalik subyektlarini soliq va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan "bo'yin tovlash"lari uchun turli xufyona yo'llarni izlashga undaydi.

j) Bozor sharoitida xo'jalik subyektlari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar ham ma'lum bir darajadagi tavakkalchiliklar bilan bog'liq. Shu sababli, o'zaro iqtisodiy munosabatlarga kirishayotgan har bir xo'jalik subyekti o'z kontragentining nafaqat joriy va kelgusi davrdagi

to'lov qobiliyatini, balki moliyaviy imkoniyatlarini ham batafsil, to'liq o'rganishga harakat qilishi lozim.

Rossiyalik olimlar o'z kontragentining to'lov qobiliyatini doimiy ravishda o'rganib borish xususida quyidagilarni ta'kidlashgan: *"Har qanday vaziyatda ham hattoki, "sotuvchi" va "xaridor" o'rtasida uzoq muddatdan buyon turli kontraktlar tuzilib, doimiy ravishda majburiyatlar o'z vaqtida ijro etilib kelinayotgan va tomonlar o'rtasida mustahkam aloqalar mavjud bo'lganida ham "xaridor"ning to'lovga layoqatliligi to'g'risida axborotlarga ega bo'lish uchun "sotuvchi" barcha zaruriy choralarni ko'rish maqsadga muvofiqdir"* (Амуржуев., Дороганцев, 1994).

Haqiqatan ham har bir xo'jalik subyekti uchun bugungi kunda juda ahamiyatli bo'lgan *"xaridorning moliyaviy ahvoli"* hamda *"xaridorning o'z moliyaviy majburiyatlarini bajarishga qanday mas'uliyat bilan yondashib kelayotganligini"* imkon qadar o'rganib chiqilishi, o'zaro hisob-kitoblarni o'z vaqtida amalga oshirilishida muhim rol o'ynaydi.

z) Iqtisodiy munosabatlarga kirishgan tomonlarning majburiyati va javobgarligi hamda o'zaro NPHKlarni amalga oshirish qoidalari qonunchilik hujjatlarida qay darajada mukammal ifoda etilganligi, xo'jalik subyektlari o'rtasidagi NPHKlarda ko'zda tutilmagan holatlar, vaziyatlar ro'y berganda uning oqibatlarini tez, asosli va adolatli bartaraf etishga yordam beradi. Bu o'z navbatida, xo'jalik subyektlari o'rtasidagi NPHKlarni yanada ommaviylashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, biz yuqorida xo'jalik subyektlari o'rtasidagi NPHKlarga ta'sir etuvchi asosiy omillarning ayrimlariga to'xtalib o'tdik. Demak, NPHKlarga ta'sir etuvchi omillar qancha ko'p o'rganilsa, mazkur hisob-kitoblarga ijobiy yoki salbiy omillar ta'sirini tartibga solishning samarali usullarini tanlash imkoniyati paydo bo'ladi. Zero, xo'jalik subyektlari o'rtasidagi NPHKlarga ijobiy yoki salbiy ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash hamda ularni tahlil qilish – mazkur hisob-kitoblarning ko'lamini imkon qadar kengaytirish bo'yicha zaruriy choralarni asoslangan holda amalga oshirishda muhim hisoblanadi.

Adabiyotlar / Литература / Reference:

O'lmasov A. (1997) *"Iqtisodiyot nazariyasi"* Toshkent: "Mehnat", -224 b.

Алексеева Л.В. (2000) *"Безналичные расчеты как элемент денежного оборота"*. Диссертация кандидата экономических наук: 08.00.10, 158 с. <http://www.dslib.net/finansy/beznalichnye-raschety-kak-jelement-denezhnogo-oborota.html>.

Амуржуев О.В., Дороганцев А.Е. (1994) *"Неплатежи: способы предотвращения и сокращения"*. –Москва: «Аркаюр». -56 с.

Лаврушина О.И. (1992) *«Банковское дело»*. Под редакцией. Москва: "Банковский и биржевой научно-консультационный центр". - 432 стр.

Михаэлис А.Э., Харламов Л.А. (1993) *«Бумажные деньги России»*. Москва, - 172 с.